

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

**1995-yildan nashr etiladi**  
**Yilda 6 marta chiqadi**

**4-2025**  
**PEDAGOGIKA**

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

**Издаётся с 1995 года**  
**Выходит 6 раз в год**

|                                                                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>M.M.Mirzakarimova</b>                                                                                                                         |    |
| O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini rivojlantirishning diagnostik tahlili .....                                                           | 5  |
| <b>H.K.Abbasova, Sh.A.Tojiboeva</b>                                                                                                              |    |
| Роль медиа в образовании .....                                                                                                                   | 14 |
| <b>G.P.Tashmatova</b>                                                                                                                            |    |
| Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции .....                       | 18 |
| <b>O.M.Erkaboyev</b>                                                                                                                             |    |
| Harbiylashgan (Temurbeklar maktabi misolida) va harbiylashmagan maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasini baholash .....           | 24 |
| <b>D.A.Tursunova</b>                                                                                                                             |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni va aksiologik asoslari .....       | 31 |
| <b>S.T.Xalikova</b>                                                                                                                              |    |
| Sport faoliyatini rivojlantirishda asosiy psixologik xususiyatlar .....                                                                          | 35 |
| <b>M.M.Xasanova, Q.O.Shodmanov</b>                                                                                                               |    |
| Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromiga chalingan bolalarning klinik va psixologik-pedagogik xususiyatlari .....                        | 40 |
| <b>F.O'.Toshiboltayev</b>                                                                                                                        |    |
| Ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni integratsiyalash .....                                                                                     | 43 |
| <b>A.M.Azimov</b>                                                                                                                                |    |
| Kurashda texnik va taktik ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogik metodlar .....                                                                | 46 |
| <b>X.X.Raximov</b>                                                                                                                               |    |
| Ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlari: farqlar va o'xshashliklar .....                                                                      | 50 |
| <b>O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova</b>                                                                                                               |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik hamkorlikning vazifalari .....                                                                         | 54 |
| <b>F.Q.Qurbonova</b>                                                                                                                             |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlari .....                       | 58 |
| <b>B.B.Nurmatov</b>                                                                                                                              |    |
| Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati ..... | 62 |
| <b>I.I.Hotamova</b>                                                                                                                              |    |
| Integrating ai-powered pronunciation tools to enhance speaking proficiency in efl learners .....                                                 | 65 |
| <b>U.Y.Axmedova, F.J.Muhammadqodirova</b>                                                                                                        |    |
| Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida texnologik topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladigan metodlar .....                                           | 68 |
| <b>G.Sh.Rakhimova</b>                                                                                                                            |    |
| Implementing authentic text approach to improve reading comprehension of efl students .....                                                      | 71 |
| <b>O.R.Raxmatov</b>                                                                                                                              |    |
| Yolg'on axborot, dezinformatsiya va manipulyatsiyaning keng tarqalishi .....                                                                     | 74 |
| <b>A.A.Parmonov</b>                                                                                                                              |    |
| Akmeologik motivatsiya va uni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....                                    | 78 |
| <b>Ch.B.Raximova</b>                                                                                                                             |    |
| Talabalarni lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirish orqali ularning kognitiv qobiliyatlarini rag'batlantirish .....                       | 83 |
| <b>D.A.Tursunova</b>                                                                                                                             |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli .....                                      | 87 |
| <b>F.O'.Toshiboltayev</b>                                                                                                                        |    |
| Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida akt integratsiyasining samaradorlikka ta'siri .....                                                         | 91 |



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINI USTOZ-SHOGIRD  
AN'ANALARI ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
ZARURATI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ  
ТРАДИЦИЙ НАСТАВНИКА-УЧЕНИКА**

**THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL  
COMPETENCE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION SPECIALISTS BASED ON THE  
TRADITIONS OF THE MENTOR-PUPIL**

**Nurmatov Baxrom Bektemirovich** 

mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari, bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirishning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития профессиональная компетентности будущих учителей физической культуры, педагогические формы, методы и средства развития профессиональная компетентности будущих учителей физической культуры, эффективность повышения педагогической культуры и компетентности будущих специалистов по физической культуре. Анализируется социально-педагогическая необходимость развития профессиональная компетентности будущих учителей физической культуры.*

**Abstract**

*The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of professional competence in future physical education teachers, the pedagogical form, methods and means of developing professional competence in future physical education teachers, the effectiveness of improving the pedagogical culture and competence of future physical education specialists. The socio-pedagogical necessity of developing professional competence in future physical education teachers is also analyzed.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy madaniyat, ustoz-shogird an'analari, modernizatsiya, innovatsiya, kasbiy faoliyat, pedagogik madaniyat, amaliy texnologik tizim, kasbiy kompetentlik, kompetensiya.

**Ключевые слова:** физическая культура, модернизация, инновация, профессиональная деятельность, педагогическая культура, практическая технологическая система, профессиональная компетентность, компетентность.

**Key words:** physical culture, modernization, innovation, professional activity, pedagogical culture, practical technological system, professional competence, competence.

**KIRISH**

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetensiyasini o'rganish, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ fazilatlarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'qituvchilik faoliyatida jamiyatga tez moslashishi, kasbiy o'qituvchilik faoliyatida o'zini o'zi qadrlashi, o'qituvchilik faoliyatini tizimli baholashning kasbiy ko'rsatkichlari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga harakat qilinadi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining ustoz-shogird an'analari asosidagi kasbiy kompetensiyasi faqat ularning kasbiy bilim va ko'nikmalaridan iborat emas, balki ularning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ jarayondagi sifatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu asosda ularning har tomonlama rivojlanishini tahlil qilish zarur.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining ustoz-shogird an'analari asosida kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish masalalari Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriyembar Jeron, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov, P.M.Erdniev, B.P. Erdniev, V.A.Slastenin, U.Sh.Begimqulov, M.B.O'razova, D.A.Mustafoeva, N.A.Muslimov, A.A.Xalikov, H.Qarshiboev, A.Alimov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini ustoz-shogird an'analari asosida oshirish, ularning pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini tadqiq etish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari E.F.Zeer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi sifatida qadrlaydi. Shu bilan birga, shaxsning maqsadga yo'naltirilganligi, kasbiy jihatdan muhim bo'lgan fazilatlari va psixofizeologik xususiyatlarni ifodalaydi.

Kasbiy sifatlar insonlarda mavjud bo'lgan ma'lum qobiliyatlar asosida shakllanadi. Agar o'qituvchi tegishli qobiliyatlarga ega bo'lmasa, uning pedagogik sifatlarini shakllantirish qiyinchiliklar bilan uzoq muddat davom etishi mumkin. O'qituvchining kasbiy sifatlarining shakllanishi, uning faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilaganligi va o'z kasbiy imkoniyatlarini to'g'ri tushunganligi kabi shaxsiy jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir va ular bu jarayonda katta ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik mahoratning shakllanishib borishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat, o'qituvchida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan bir qator shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida qaraladi. Ushbu sifatlar o'qituvchining kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etishga yordam beradi. Pedagogik mahorat uchun muhim sifatlar orasida o'qituvchining insonparvarligi, kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi mavjud. Bu sifatlar o'qituvchining ishida muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o'ynaydi.

Mana shu nuqtai nazardan, quyidagi jihatlarni ta'kidlash lozim: birinchidan, pedagogik mahorat shaxsning o'z-o'zini tashkil etish tizimi sifatida qaralishi kerak bo'lib, bu tizimda insonparvarlikka yo'nalganlik asosiy omil hisoblanadi; ikkinchidan, pedagogik mahoratni rivojlantirish zaminida o'qituvchi xatti-harakatlarining asl mohiyatini asoslanganligi, ongilligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Bu bilimlar o'qituvchining professional faoliyatining asosiy tuzilmasini yaratadi va uning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi; uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning tezroq shakllanishini rag'batlantiradi va bu jarayonni tezlashtiradi; to'rtinchidan, pedagogik texnika, u o'qituvchining bilim va qobiliyatlariga tayanadi va pedagogik faoliyatning barcha elementlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagogik mahoratning to'rt tarkibiy qismi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi faqat tashqi ta'sir bilan emas, balki shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati bilan ham bog'liqdir. Bu jarayon muayyan bilim va ko'nikmalarni talab qiladi va muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti shaxsiy qobiliyatlar va pedagogik texnikadan foydalanishdir.

Pedagog uchun eng muhim yo'nalish faoliyatini insonparvarlashtirishdir. Biroq, kelajak oldidagi mas'uliyatni chuqur his qilish, ongli ravishda harakat qilish va bolalarga cheksiz muhabbat bilan yondashish orqali o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanadi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislari kasbiy yo'nalganligining asosida ikki omil yotadi: o'zi dars beradigan fanga bo'lgan chuqur qiziqish va bolalar bilan muloqot qilish istagi. Pedagogik mahoratning fundamental asosi bu kasbiy bilim hisoblanadi. O'qituvchining bilimi bir tomondan fan, ikkinchi tomondan esa uni o'zlashtiruvchi o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilim mazmuni esa o'z fani nazariyasi va metodikasini, shuningdek pedagogika va psixologiyani yaxshi bilish bilan belgilanadi. Kasbiy pedagogik bilimning o'ziga xosligi uning kompleksligidir. U o'qituvchida

## PEDAGOGIKA

o'rganilayotgan fanlarni sintez qila olish qobiliyatini talab etadi. Sintezning asosi pedagogik topshiriqlarni yechish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish, hamkorlik vositalarini tanlashdan iborat. Har bir pedagogik topshiriqni hal qilish jarayonida o'qituvchining pedagogik kasbiy bilimi faollashadi va yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining kasbiy bilimi asosida pedagog tafakkuri – prinsiplar va qoidalar shakllanadi. Ular talaba xatti–harakatlari, xulq–atvorida namoyon bo'ladi. Bu prinsiplar va qoidalar har bir talaba amaliyotlar jarayonida tajribasiga tayanib quriladi. Lekin faqat kasbiy bilim orqali talaba uni anglashi va uning qonuniyatlarini ko'ra olishi mumkin. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, o'qituvchini tayyorlash, kasbga layoqatli bo'lishini ta'minlash juda murakkab jarayon. Chunki kasbiy bilim bir vaqtda barcha darajalarda teng shakllantirilishi kerak: metodologik (rivojlanishning umumfalsafiy qonuniyatlarini, tarbiya maqsadi va shart-sharoitlarini bilish), nazariy (pedagogika va psixologiyani qonun-qoidalari, prinsiplari, faoliyatning asosiy shakllari), metodik (o'quv–tarbiya jarayonini ko'ra olish darajasi), texnologik (muayyan sharoitda ta'lim–tarbiyaning amaliy topshiriqlarini hal etish darajasi). Bu ma'lum darajada rivojlangan kasbiy tafakkuri, ya'ni pedagogik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bilimlarni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlashni talab etadi.

Pedagogik mahorat tizimining uchinchi elementi sifatida pedagogik qobiliyatlar ajralib turadi. Ular pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlaydigan psixik jarayonlarning kechishini ko'rsatib beradi. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi turli tadqiqotlarda keltirilgan bo'lib, ulardan eng muhimlari pedagogik mahoratga olib keladi.

Kasbiy tayyorgarlik tezligi, bo'lajak pedagog pedagogik faoliyat shakl va usullarini qanchalik chuqur va puxta egallaganiga qarab uning pedagogik layoqatini bilish mumkin. Pedagogik qobiliyatlar tekshiruvi, avvalo, kommunikativlikdan, ya'ni muloqot qobiliyatidan boshlanishi tavsiya etiladi. Har bir kishida bu qobiliyat mavjud, ammo turli darajalarda namoyon bo'ladi. Agar o'qituvchining kommunikativlik darajasi past bo'lsa, bu uning kasbiy faoliyat muhitini buzilishiga olib keladi va o'quvchi bilan o'zaro hamkorlik qilishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun, o'zingizni ko'pchilik davrasida qulay his qilish darajasini aniqlash muhimdir. Buni aniqlash uchun turli qiziqarli metodikalar qo'llanilishi mumkin.

Pedagogik mahorat tizimining to'rtinchi va muhim elementi bu pedagogik texnika hisoblanadi, bu o'qituvchining xatti-harakatlarini tashkil etuvchi asosiy usul sifatida tanilgan. Pedagogik texnika, o'zini boshqarish hamda ta'limiy va tarbiyaviy topshiriqlarni hal etish jarayonida o'zaro hamkorlik qilish kabi ikki muhim ko'nikmani o'z ichiga oladi. Birinchi guruh ko'nikmalari o'zini o'zi boshqara olish, jumladan, o'z gавdasini, his-tuyg'ularini va nutqini boshqarishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh esa didaktik, tashkilotchilik va kommunikativ ta'sir ko'rsatish texnikalarini o'z ichiga oladi. Ushbu texnikalar bilim, yo'nalganlik va qobiliyatlar bilan birgalikda, pedagogning o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi.

**XULOSA**

Pedagogik mahorat tizimining ko'rib chiqilgan elementlari, pedagogik faoliyatning ushbu hodisasini tizimli va kompleks tarzda yondashish zarurligini ko'rsatadi. Mahoratning yuqori darajasi pedagogik faoliyatning yangi sifatiga yo'l ochadi; bu esa o'qituvchining kasbiy pozitsiyasining shakllanishiga, bilimlarni chuqurlashtirishga va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Qobiliyatlarning yuqori darajasi o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini yanada aniqroq ifoda etish imkonini beradi, va pedagogik texnikani takomillashtirish esa maqsadlarga erishish va samarali natijalarga olib keladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Башина Т. Ф., Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. — СПб.: Питер, 2009. — С. 62.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. — М.: "Знание". -1996 — 308 с.
3. Махмудов, Б. А. Жисмоний тарбия бўйича мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда компетентликнинг ўрни. Молодой ученый. 2022. № 1(396).
4. Муслимов Н. А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш / Монография. — Т.: Фан, 2004. — Б. 47-48.
5. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. — Тошкент, 2015. — Б. 6.